# O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BADIIY MATNNING LINGVOPOETIK, LINGVOSTATISTIK VA LINGVOSTILISTIK TADQIQI BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLARNING TARIXIY GENEZISI

***Qurbonova Muharram Jurabekovna***
Samarqand davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik, lingvostilistik va lingvostatistik tadqiqi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarning tarixiy genezisi yoritilgan. Sharq mumtoz tilshunosligidan boshlab zamonaviy o'zbek filologiyasigacha bo'lgan ilmiy qarashlar tahlil qilinib, badiiy matn tilini o'rganishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rsatib berilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishining shakllanishi va rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlarning ilmiy ishlari haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar**: badiiy matn, lingvopoetika, lingvostilistika, lingvostatistika, poetik til, badiiy uslub, til va adabiyot, poetik mahorat, filologik tahlil, o'zbek tilshunosligi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается исторический генезис исследований художественного текста в узбекском языкознании в аспектах лингвопоэтики, лингвостилистики и лингвостатистики. Анализируются научные взгляды, начиная с восточной классической филологии до современной узбекской филологии, а также раскрываются теоретические и практические аспекты изучения языка художественного текста. Кроме того, представлена информация о научных трудах ученых, внесших вклад в становление и развитие лингвопоэтики в узбекском языкознании.

**Ключевые слова:** художественный текст, лингвопоэтика, лингвостилистика, лингвостатистика, поэтический язык, художественный стиль, язык и литература, поэтическое мастерство, филологический анализ, узбекское языкознание.

**Abstract:** This article discusses the historical genesis of studies on literary texts in Uzbek linguistics from the perspectives of linguopoetics, linguostylistics, and linguostatistics. Scientific views from classical Eastern philology to modern Uzbek philology are analyzed, and the theoretical as well as practical aspects of studying the language of literary texts are highlighted. In addition, the article provides information about the scholarly works of researchers who contributed to the formation and development of linguopoetics in Uzbek linguistics.

**Keywords:** literary text, linguopoetics, linguostylistics, linguostatistics, poetic language, literary style, language and literature, poetic mastery, philological analysis, Uzbek linguistics.

*Badiiy asar tili* turli usullarda o'rganilib, bu borada ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan bo'lsa-da, mavzu bugungi kunda ham o'zining dolzarblik va yangilik bo'yog'ini yo'qotgan emas. Toki badiiy asarlar yaratilaverar ekan, ularning tilini va ijodkor poetik mahoratini tadqiq etish davom etaveradi. Nega deganda, yozuvchining individual uslubi, avvalo, uning tilida aks etadi.

O'zbek adabiyotshunosligi tarixida ham badiiy asarni tahlil qilish mavjud. Chunki badiiy asarlar uch jihatdan: Ilm bade', ilmi qofiya, ilmi aruz nuqtai nazaridan o'rganilgan. Hatto jahon tilshunos olimlaridan biri V.P.Grigoryev ham "Poetika va so'z" asarida badiiy asar tiliga e'tibor berish avvalo sharqda boshlanganini aytib o'tadi[2:344]. Bu haqida Kaykovusning "Qobusnoma" asarida ham shunday deyiladi: "Ammo so'zning ta'sirchan bo'lishini istasang, kinoya-

istehzoli so'zlarni ishlatmag'il, lekin boshqacha qilib, ya'ni mumkin qadar so'zni istiorot shaklida ishlatg'il"[3:145]. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, sharq tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlar birmuncha avval boshlangan deya olamiz.

Yoki Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bobomiz "Muhokamat ul-lug'atayn" asarlarida she'riy san'atlar, ularni yuzaga keltiruvchi omillar ko'p ekanligini ikki til qiyosi jarayonida aytib o'tadilar: "Yana barcha shoirlar qoshida ravshan va hamma so'z ustalari oldida aniq ma'lumdurki, she'rda tajnis-u iyhom (misralar oxirida jinsdosh, shakldosh so'zlar ishlatib, turli ma'nolar chiqarib, so'z o'yini qilish) qoidasi umumlashgandir. Bu chiroyli ibora va go'zal belgilardan forsiydan ko'ra turkchada ko'proq tajnisni bildiruvchi so'z va iyhomni anglatuvchi nuqtalar borki, bu nazmni bezantiradi va san'atli qiladi"[1:64].

XX asrning 40-50-yillaridan boshlab esa o'zbek tilshunosligida keng qamrovda til va adabiyot uyg'unligiga bag'ishlangan tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, bu boradagi dastlabki tadqiqot A.G'ulomning bu sohadagi ba'zi maqolalari yozilishi bilan boshlangan bo'lsa, keyinchalik, R.Qo'ng'urovning "O'zbek tili stilistikasidan ocherklar" (1975), R.Q.Qo'ng'urov, S.A.Karimovlarning "Zulfiya poezisiyasining lug'ati"(1981), S.A.Karimovning "Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari", "Badiiy matnning uslubiy alomatlari", "O'zbek tilining badiiy uslubi", M.Muhiddinov, S.Karimovlarning "G'afur G'ulomning poetik mahorati" kabi ilmiy tadqiqotlari sohani yanada rivojlantirdi.

Mustaqillik yillarida o'zbek badiiy matni muammolariga, xususan uning lingvopoetikasi masalalariga bag'ishlangan bir necha dissertatsiyalar himoya qilindi, monografiyalar nashr etildi. I.Mirzaevning «She'riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari», S.Karimovning «O'zbek tilining badiiy uslubi»,

M.Yoqubbekovaning «O'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik xususiyatlari», M.Yo'ldoshevning «Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi» nomli doktorlik dissertatsiyalari, M.Yo'ldoshevning «Cho'lponning badiiy til mahorati», G.Muhammadjonovaning «80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi», D.Shodievaning «Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi», Sh.Haydarovning «Badiiy matnda parsellyativ konstruksiyalarning qo'llanilishi», D.Jamolidinovaning «Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari», F.Ibragimovaning «Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis» nomli nomzodlik dissertatsiyalari, M.Muhiddinov va S.Karimovlarning «G'afur G'ulomning poetik mahorati», B.Yo'ldoshev, Z.Shodievlarning «Ufq» trilogiyasining lingvopoetik tadqiqi masalalari» monografiyalari shular jumlasidandir.

I.Mirzaevning «She'riy matnni lingvopoetik talqin qilish muammolari» nomli doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tilshunosligida mazkur yo'nalishdagi dastlabki yirik ishlardan biridir. Dissertatsiyadagi lingvopoetik kuzatishlar ob'ekti sifatida she'riy nutq olingan. Unda G'afur G'ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Zulfiya, Asqar Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matjon, Usmon Azim singari o'zbek ijodkorlari asarlari matni lingvopoetik nuqtai-nazardan tadqiq etilgan. Bu ishda olim o'zbek she'riyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganar ekan, unga ijodkorning badiiy mahoratini aniqlash nuqtai-nazaridan yondashadi.

Shuningdek, I.Mirzaevning «Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы», «Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o'rni», «Lingvopoetik tahlil filolog-ijodiy tafakkur sohibini tayyorlashning birlamchi omili ekanligi haqida», «Lingvopoetika: yuzaga kelishi,

muammo va yechimlari» asarlari ham bevosita ushbu mavzuga bag'ishlangan[6:40].

Ta'kidlaganimizdek, o'zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligida badiiy asar tili va uslubiy xususiyatlarini o'rganish o'tgan asrda boshlangan bo'lsa ham, uni lingvopoetik planda o'rganish hali jiddiy kun tartibiga qo'yilmagan edi. Bu ishga M.Yo'ldoshev birinchilardan bo'lib qo'l urdi hamda «Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yozdi va «Badiiy matn lingvopoetikasi» (Toshkent, 2008) nomli monografiyasini e'lon qildi[11:30]. Ushbu tadqiqot o'zbek filologiyasida lingvopoetik tadqiqotlarga keng yo'l ochib bergan metodologik yo'llanma bo'ldi. Shu paytga qadar jahon va rus tilshunosligi va adabiyotshunosligida mavzuga oid yuzaga kelgan asarlar to'g'risida qisman, o'zbek filologiyasidagi asarlar yuzasidan esa atroflicha berilgan ma'lumotlar va amalga oshirilgan tahlillar shunday deyishimizga asos bo'la oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. А.Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Тошкент: Академнашр, 2017. – Б.64.
2. Григорьев В.П. Поэтика слова. – М.: Поэтика, 1979. – 344 с.
3. Ибрагимова Ф. Бадиий матнда эллипсис ва антиэллипсис. Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2011.
4. Жамолиддинова Д. Бадиий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2009.
5. Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2018. – Б.145.
6. Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. – Самарқанд. 1994. – 59 б.

7. Мирзаев И.К. Лексические и морфологические средства формирования семантики рифмы. - Ташкент: Фан, 1990. -132 б.
8. Мирзаев И.К. Пролемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф.дис. …д-ра филол.наук. – Ташкент, 1992.
9. Муҳиддинов М., Каримов С. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 2003. -126 б.
10. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2004. Б.25.
11. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол.фан.номз. ...дисс.автореф. – Тошкент, 2000. -Б.26.
12. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан, 2008